

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATI LEKSIK XUSUSIYATLARI

JDPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Erkinova Indira

“Eng yaxshi san’at asarlarini vaqti-vaqti bilan takror sinchiklab turmoq zarur,ularda ko’z ilg’amas teranlik yashiringan bo’ladi”

GYOTE

Ma’lumki, o’zbek she’riyatida ma’lum bir ma’noda daholashoirlarimiz bisyor. Birgina “daholashoir” so’zini har qanday ijodkor uchun ham ishlatish qiyinroq meni nazaramda. Daholashoir ijodkorlarimiz xalqni asrlar davomida qalblarida saqlab kelayotgan orzu-istaklarini,ertangi kunga qanday maqsadlar sari qadam qo’ymoqchi ekanliklarini birgina to’rtlik she’rlari kata hajmdagi romanlari,hikoyalari orqali aks ettira oladilar va bu ularda keljakka ishonch ruhlarini yanada yuksakroq parvoz qilishlariga turki buladi desak yanglisgmaymiz albatta.Ana shunday daholashoir insonlari qatorida men o’zbek shoirlari o’zining o’lmas mumtoz asarlari bilan xalq dardini kuylay olib,ularning har bir so’zlari qalbimizni oynasini chirtib borgani hecg kimga sir emas.Agar o’zbek shoirlarini bir bog’ desak, ularning asrlar osha yashayotgan asarlari biz uchun shu bog’ning mevalari hisoblanadi.SHu bog’da o’z o’rnini topib shoxlari yuksakka qo’l cho’zgan tom ma’noda daholashoirlarimizdan biri hech shubhasiz,Abdulla Oripovdir. U kishining she’rlarida yaxshilik va yomonlik, haqiqat, adolat, go’zallik, erkinlik, vatan madhi kabi sifatlar mavjud.Shunungdek,” **Meni she’riyatimda yolg’izlik, mahzunlik tuyg’ulari ko’p uchraydi, deya dakki berishgan va buning sababiini turlicha sharhlashgan ham”-degan edi shoir.** Haq gap.Yaratilgan asar xoh u she’r tarzda, xoh roman yoki hikoya shaklida bo’lsin unda mavzusidan qat’iy nazar yumor bilan birga albatta mahzunlik tuyg’ulari bo’lmasligi mumkin emas.Inson o’qiyotgan har qanday asardan kitobxon o’ziga nimadir olishi kerkligi yozuvchi tomonidan ko’zlangan maqsad bo’ladi,kitobni varaqlar ekan asarni

maqsadiini,mazmunini bilish uchun asar qahramonlari biln birga yashamogi hislarini his qilmogi asardagi brgina jumlar orqali kitobxonga tasirli aks ettiradi.Agar kitobxon asarni yuqoridagidek,tahlil bilan o'qib o'rgansagina asardagi kulminatsion nuqtasini topa olsa,asardagi vaziyatga to'g'ri baho bera olasagina shoir o'z oldiga quygan maqsadga erisha oladi nazarimda.Ana shunday yozuvchi shoirlardan biri Abdulla Oripov edi.Shoirning "Munojotni tinglab" she'rlarini o'qib chiqqachgina yuqorida aytib o'tilgan mahzunlik, yolg'izlik kabi sifatlar bejizga aytilmaganiga bir karra amin bo'ldim.

Qani ayt maqsading nimadir sening,

Nega tilkalaysan bag'rimi ohang

Nechuk kerak bo'ldi senga ko'z yoshim

Nechuk kerak, rubob senga shuncha g'am!

Bu she'ning boshlanish to'rtligi bo'lsada shu satrlarning o'zidayoq insonga javobini berish mushkul bo'lgan savollar bilan boshlangandek go'yo.Bu she'rda shoir kuyga, chalg'uvchiga,rubobga murojaat usubida yozilgan va bu dardli,g'amli dilni ezuvchi kuy ekani hech kimga sir emas,qolaversa, she'rda tilshunoslikda ishlatiladigan gumon olmoshlaridan ham unumli foydalanilganini ko'rishimiz mumkin.Asilda "Munojot"so'zi arabchadan olingan bo'lib, "yordam so'rash","yolvorish","yalinish","najot so'rash" kabi ma'nolarni beradi.Qolaversa, munojot o'zbek mumtoz musiqasi hisoblanadi.Unda xalqning o'tmishi, tarixi kuylashgan,bundan ko'rinib turubdiki,tarixni doimo shodon tomonlari emas, balki dardli tomonlari ham kuylanib kelinadi.

Eshilib, to'lg'onib, ingranadi kuy

Qaylardan kelmoqda bu oh-u faryod

Kim u yig'layotgan, Navoiymikin,

Va yo may kuychisi Xayyomikin dod!

Keyingi satrlarda munojotning mazmuni kengroq, teranroq ifodalanadi.Munojatning asosiy g'amli, dardli voqealari shu satrlarda yaqqol ko'zga tashlanib turadi.Kuyning chindan ham ezilib, to'lg'onib, ingranib kuylanishi haqiqat.Ya'ni bunda kuyga berilgan sifatlar to'g'ri ekani,keying

qatorida esa kuy shoirga kimningdir yig'isi,oh-u faryodi bo'lib eshtiladi.,buni haqiqat deyish mumkin.Bejizga shoirga Navoiy va Xayyomni keltirilmagan.Ular ijod qilib yashagan davrlarda ham yaxshilik bilan yomonlik bir-biriga yaqin bulgani hech kimga sir emas albatta.Yana shoir aytib o'tganidek,"Kuy shunchalar mahzun bo'lsa,asil dard-u g'amning o'zi qanday ekan?"albatta bu savolkitobxonni o'yga cho'mdiradi.

Kuyi shunday bo'lsa, g'amning o'ziga

Qanday chiday olar ekan odamzod!

Shoir misralar oxirida xulosani kitobxonning o'ziga qoldiradi.Malumki, asrlar, vaqtlar o'tib har bir insonning hech kimga aytolmaydigan qalbdagi so'zlari,boshqalarga izhor etolmagan sevigisi,hayotidagi darrdli va quvonchli onlari qaysidir inson tomonidan balki o'sha insonning o'zi bir kun albatta bu izhorlani qog'ozga yozar, kuyga solinib ijro etar.

Abdulla Oripovning aynan bu she'rlarini ham shunday she'rlar qatoriga kiritishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlari:

- 1.Adabiyot 10-sinf darslik kitobi
- 2."Munojot"ni tinglab